



UDK: 291.2:39(575.1)

Matluba EGAMBERGANOVA,
Urganch innovatsion universiteti dotsenti, PhD
E-mail:matluba93@urgiu.uz

UrDU dotsenti, t.f.n Sh.Nurullayeva taqrizi asosida

QADIMIY XORAZM AHOLISI E'TIQODLARIDA TABIAT VA INSON MUNOSABATLARI

Аннотация

Mazkur maqolada qadimiy Xorazm aholisi e'tiqodlarida tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlarning shakllanishi tahlil qilingan. Xususan, animizm va totemizm kabi ibtidoiy diniy qarashlarning suv, daraxt, hayvonot olami hamda muqaddas mavjudotlarga oid tasavvurlar orqali ekologik madaniyatni rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, jin va boshqa g'ayritabiiy kuchlar haqidagi tasavvurlar xalqning dunyoqarashida tabiatni muqaddaslashtirish hamda ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qilganligi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari qadimiy diniy e'tiqodlarning nafaqat ijtimoiy, balki ekologik funksiyalarini ham namoyon etadi.

Kalit so'zlar: Xorazm, qadimiy e'tiqodlar, animizm, totemizm, jinlar tasavvuri, ekologik madaniyat, diniy marosimlar, tabiat va inson munosabati.

ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ПРИРОДЫ И ЧЕЛОВЕКА В СИСТЕМЕ ВЕРОВАНИЙ ДРЕВНЕГО ХОРЕЗМА

Аннотация

В статье рассматривается формирование взаимоотношений между человеком и природой в верованиях древнего населения Хорезма. Особое внимание уделено роли анимизма и тотемизма, которые через представления о воде, деревьях, животном мире и сакральных существах способствовали развитию экологической культуры. Кроме того, анализируются представления о джиннах и других сверхъестественных силах, которые способствовали сакрализации природы и поддержанию экологического равновесия. Результаты исследования показывают, что древние религиозные верования выполняли не только социальные, но и экологические функции.

Ключевые слова: Хорезм, древние верования, анимизм, тотемизм, представления о джиннах, экологическая культура, религиозные обряды, взаимоотношения природы и человека.

THE RELATIONSHIP BETWEEN NATURE AND HUMANS IN THE BELIEF SYSTEMS OF ANCIENT KHOREZM

Annotation

This article examines the formation of human-nature relations in the belief systems of ancient Khorezm. Particular attention is given to the role of animism and totemism, which, through conceptions of water, trees, animals, and sacred beings, contributed to the development of ecological culture. The study also explores beliefs about jinn and other supernatural forces that reinforced the sacralization of nature and the preservation of ecological balance. The findings demonstrate that ancient religious beliefs served not only social but also ecological functions.

Key words: Khorezm, ancient beliefs, animism, totemism, concept of jinn, ecological culture, religious rituals, human-nature relationship.

Kirish. Insoniyat taraqqiyoti davomida diniy e'tiqodlar nafaqat ijtimoiy hayotning ma'naviy asosini, balki tabiat bilan munosabatlarning muayyan meyorlarini ham shakllantirgan. Qadimiy jamiyatlarda animizm, totemizm, tabiat unsurlariga sig'inish kabi tasavvurlar tabiatni muqaddaslashtirish orqali ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qilgan. Xorazm o'zbeklarining ibtidoiy e'tiqodlari ham shu jarayonning yorqin namunasidir. Ular suv, daraxt, tog' va hayvonot olamiga bo'lgan e'tiqodlari orqali tabiat bilan uyg'unlikda yashash, uni asrab-avaylash va resurslardan oqilona foydalanish g'oyalarini qaror toptirgan. Shu bois Xorazm hududida shakllangan animistik va totemistik qarashlarni o'rganish nafaqat tarixiy-madaniy merosni yoritadi, balki ekologik madaniyatning ildizlarini anglashga ham yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Diniy e'tiqodlar va tabiatga munosabat masalasi antropologiya va etnologiya fanlarida keng tadqiq qilingan. E. Teylor va J. Frezer animizm hamda totemizmni insoniyatning eng qadimiy diniy shakllari sifatida baholagan bo'lsa, o'zbek tadqiqotchilaridan O. Bo'riyev va H. Boltaboyevlar marosimlarning ekologik mazmuniga alohida e'tibor

qaratganlar. Bu ishlar diniy tasavvurlarni ekologik ongning shakllanishi bilan bog'liq holda tahlil etishga zamin yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

tarixiy-qiyosiy – diniy tasavvurlarni boshqa hududlardagi qarashlar bilan solishtirish;

etnografik – marosim va urf-odatlarini mazmunan tahlil qilish;

manbashunoslik – yozma manbalar va folklor materiallari asosida tahlil;

sistemali yondashuv – diniy e'tiqodlar va ekologik madaniyat o'rtasidagi uzviylikni aniqlash.

Tahlil va natijalar. Xorazm o'zbeklarining dastlabki ishonchlarida animizm alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Amudaryo hamda uning qirg'oqlaridagi suv buloqlari, daraxtlar va tog'lar muqaddas sifatida e'tirof etilgan. Masalan, Xorazmda keng tarqalgan "suv onasi" (Suu Apa) haqidagi tasavvur suv manbalarini iflos qilmaslik va ularni muqaddas deb bilish zarurligini ko'rsatgan [1]. Suv atrofida o'tkazilgan marosimlar, jumladan, yomg'ir chaqirish (talab) urf-odatlarini tabiat bilan munosabatda ekologik axloq tamoyillarini namoyon etgan. Ushbu marosimlarda odamlar tabiatdan

“ruksat” so‘rash orqali uning mutanosibligini saqlashga harakat qilishgan.

Masalan, qadimgi Xorazm dehqonchilik jamoalarida urug‘ sepishdan oldin maxsus duo o‘qilib, yerning hosildorligini oshirish uchun tabiatga minnatdorlik bildirilgan. Bu odatlar nafaqat tabiatga hurmat belgisi, balki ekologik mas‘uliyatni ham ta‘minlab turgan.

Xorazm aholisi orasida totemizm ham hayvon va o‘simlik turlariga nisbatan alohida munosabat orqali ko‘zga tashlangan. Masalan, ayrim qabilalar baliq va suv qushlarini muqaddas deb bilishgan, chunki ular Amudaryo ekotizimining muhim qismi sanalgan. Shu sababli, bunday jonzotlarni ovlash taqiqlangan bo‘lib, tabiatdagi biologik xilma-xillikni muhofaza qilishga xizmat qilgan. Shuningdek, tut va chingil kabi ayrim daraxtlar muqaddas deb qaralgan va ularni kesish yoki zarar yetkazish qat‘iy man etilgan.

Totemizm bilan bog‘liq ushbu urf-odatlar Xorazm o‘zbeklari tabiat bilan munosabatini shakllantiruvchi ekologik madaniyatning muhim qismi hisoblangan. Bu amaliyotlar tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni asrab-avaylashga yordam bergan.

A.Ashirovning ta‘kidlashicha, totemistik tasavvurlar bilan bog‘liq etnonimlarni o‘rganish natijasida avjin, buqa, bag‘ish, baxrin, ovshin, bugun, boybo‘ri, guvalak, iloniy, kalpatoy, kojar, kerayit, kiyikchi, javli, olchin, sari, toyluk, tulki, tulga, to‘pichoq, enaka, esaboy, yobi(yobu), chovgan, chuvalay, qargha, qiyg‘ochli, qorabura, qoralochin, qoraqush, qoraquyli, qorakursok, quyn, qo‘zichi, qo‘ngiroq, qo‘chqorquloq kabi qariyb 40 ta turkiy etnonim totemik e‘tiqodlar bilan bog‘liq ekanligi aniqlangan[2]. Xorazm hududida ham bu etnonimlarga bog‘liq ko‘plab toponimlar hozirgacha saqlanib kelmoqda.

Xorazmning etnografik manbalaridan ma‘lum bo‘lishicha, “jinlar”, “parilar”, “devlar”, “ajdarholar” va “albastilar” haqidagi qarashlar ancha keng tarqalgan. Bunday personajlar Markaziy Osiyo xalqlarining folklorida animalistik tasavvurlarga bag‘ishlangan holda ko‘p uchraydi. Xorazm ishonchlarida ular turlicha talqin qilingan bo‘lib, ba‘zilarining obrazi vaqt o‘tishi bilan noaniqlashib ketgan.

Jinlar haqidagi tasavvurlar eng ommalashgan bo‘lsa-da, ularning qiyofasi aniq emas. Oddiy aholi jinlarni ko‘pincha kichik hajmli, guruh bo‘lib yuruvchi mavjudot sifatida tasavvur qilgan; ular sevimli joylarida “chivin kabi” izg‘ib yuradi, deb ishonilgan. Shu bois, odamlarga bu joylarda yurmaslik tavsiya etilgan, chunki jinlar odamga zarar yetkazishi mumkin deb qaralgan[3].

Jinlar ko‘p to‘planadigan hududlar qatoriga tashlangan qishloqlar, vayrona uylar, eski masjidlar, qabristonlar, qurib qolgan ariq o‘zanlari va chuqur quduqlar kiradi. Ayniqsa, eshak va qo‘y tezagi yig‘ilgan joylarda ular ko‘payishiga ishonilgan. Jinlar ham boshqa ruhlar kabi ovqatlanishi shart. Ular turli xil taomlar bilan oziqlanishi mumkin; masalan, dasturxondan tushgan suyakni jinlar olib ketishiga ishonilgan. Shu sabab, ovqat qoldiqlaridan foydalanishning qat‘iy qoidalar mavjud bo‘lgan [4].

Ayrim daraxt turlari ham jinlar yig‘iladigan joy sifatida qaralgan. O‘rta Osiyoda yong‘oq daraxti shunday noxosiyatli hududlardan biri sanaladi. Xorazmda esa jiyda daraxti ham xuddi shu nomga ega bo‘lib, hosildorlik marosimlarida muhim o‘rin tutgan[5]. Shuningdek, qabristonlarda o‘sadigan turong‘il daraxti ham jinlar bilan bog‘langan deb hisoblangan.

Jinlarning tashqi qiyofasi noaniq bo‘lsa-da, ularga oid ruh-o‘zgartuvchi mavjudotlar haqidagi ishonchlar mavjud. Xonqa tumanida islomdan avvalgi urf-odatlar kuchli saqlanib qolgan joylarda shamonlar “shifo berish” jarayonida jin bemor og‘zidan qurbaqa yoki qurt shaklida chiqadi, deb ishonishgan. Xiva atrofida esa jinlar mushuk, it, eshak yoki ot qiyofasiga kirishi mumkinligi aytilgan. Shovotda esa ular o‘rdak yoki quyonga aylanishi mumkinligiga ishonishgan. Agar bunday quyonni quvsangiz, u sizga xavfli hududga olib borishi va zarar yetkazishi mumkinligi haqida qarashlar saqlangan [4].

Suv manbalarini iflos qilmaslik, daraxtlarni kesishdan oldin maxsus duolar o‘qish kabi marosimlar ekologik mas‘uliyatning dastlabki ifodasi sifatida namoyon bo‘lgan. Bunday amaliyotlar tabiatga munosabatda axloqiy va ma‘naviy mezonlarni shakllantirgan [6].

Alvasti turkiy xalqlar orasida — jumladan, o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, tatar va boshqa elatlar mifologiyasida uchraydi. U ko‘pincha ayol qiyofasida tasvirlanib, odamlarga, ayniqsa ayollarga va yangi tug‘ilgan chaqaloqlarga zarar yetkazuvchi ruh sifatida tasavvur qilinadi. Alvasti haqidagi rivoyatlar turkiy og‘zaki ijodda turlicha talqinlarga ega bo‘lsa-da, ular o‘rtasida umumiylik ham mavjud. U odatda uzun sochli, qo‘rqinchli qiyofadagi ayol obrazida ifodalanadi. Arman xalq og‘zaki ijodida esa u yong‘in ruhi sifatida, ilon sochli, mis tirnoqli va temir tishli ayol sifatida tasvirlanadi.

Alvasti ko‘proq ayollarning tug‘ruqdan keyingi davrida (40 kunlik muddatda) paydo bo‘lib, ularga ruhiy yoki jismoniy zarar yetkazadi deb ishoniladi. U “ayolning qirq kunlik davrida ularni bezovta qiladi” hamda turli ruhiy muammolar keltirib chiqarishi mumkin deb qaraladi. Shuningdek, u otlarni o‘g‘irlab, ularni charchatib, ertalab terlab holdan toygan holatda qaytarib qo‘yishi haqidagi rivoyatlar ham mavjud.

Xorazm qadimiy madaniyati va boy folklori bilan mashhur bo‘lib, Alvasti haqidagi qarashlar ham bu hududda o‘ziga xosdir. Jumladan, Xorazmda Alvasti, ayniqsa, yangi tug‘ilgan onalar va go‘daklarga zarar yetkazuvchi xavfli ruh sifatida talqin qilinadi. Tug‘ruqdan keyingi 40 kun davomida ayollar va chaqaloqlarni himoya qilish maqsadida maxsus urf-odatlar va marosimlar bajarilgan. Masalan, ayolning yoniga temir buyumlar (masalan, pichoq yoki qaychi) qo‘yish, xonani tutatib turish yoki Qur‘on tilovat qilish kabi odatlar Alvastidan asrash uchun qo‘llanilgan.

Xulosa va takliflar. Xorazm o‘zbeklarining ibtidoiy e‘tiqodlari, xususan animizm va totemizm unsurlari, ularning tabiatga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda muhim o‘rin tutgan. Suv, daraxt va hayvonot dunyosini muqaddaslashtirish orqali tabiatga hurmat va ekologik mas‘uliyat tamoyillari qaror topgan. Urug‘ ekishdan avval duo o‘qilish, hosildorlik marosimlari, suv manbalarini iflos qilmaslik yoki ayrim hayvon va daraxt turlarini ovlash hamda kesishni taqiqlash kabi odatlar tabiat resurslaridan oqilona foydalanishga xizmat qilgan. Totemizm bilan bog‘liq etnonimlar va etnotoponimlar esa xalqning qadimiy dunyoqarashini hamda ekologik qadriyatlarini ifodalovchi muhim madaniy meros sifatida saqlanib qolgan. Shuningdek, jinlar, parilar, devlar va boshqa g‘ayritabiiy mavjudotlar haqidagi tasavvurlar xalq ongida tabiat hodisalarini talqin qilish vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Demak, Xorazm o‘zbeklarining qadimiy e‘tiqodlari nafaqat diniy-ma‘naviy hayotning bir bo‘lagi, balki ekologik madaniyatni shakllantiruvchi omillardan biri sifatida ham alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Толстов С.П. В поисках древнехорезмийской цивилизации. — Т.: Янги аср авлоди, 2014. — 199 с.
2. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. — Тошкент, 2007. — 13 б.
3. Dala material. Nurullayeva Gulbahor. Xiva tumani. 2025-yil.
4. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. — М.: Наука, 1969. — С. 26–27.
5. Dala material. Yuldashev Behzod. Xonqa tumani. 2025-yil
6. Eliade M. The Sacred and the Profane: The Nature of Religion. - New York: Harcourt. 1959. - P. 56.